

**TERGOVCHINING EHTIYOT CHORASINI TANLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.**

*Xolmirzayev Ramazon Ravshan o'g'li.*

*Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi.*

*E-mail. [ramazonmyteacher@gmail.com](mailto:ramazonmyteacher@gmail.com)*

**ANNOTATION**

In this article, the investigator's opinions on the scientific theory of precautionary measures are discussed. In addition, the author analyzed and explained the opinions of the investigator regarding the use of precautionary measures based on the investigative experience of Uzbekistan and foreign countries. In particular, a thorough analysis and scientific-theoretical conclusions were made regarding the proper use of precautionary measures by the investigator.

**Key words:** investigator, preliminary investigation bodies, precautionary.

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada tergovchining ehtiyot chorasini qo'llashining ilmiy nazariya bo'yicha fikr mulohazalari yuritilgan. Shuningdek, muallif tomonidan O'zbekiston va xorijiy davlatlarning tergov tajribasi bo'yicha tergovchining ehtiyot chorasini qo'llashga oid fikr mulohazalari tahlil qilinib, ilmiy jihatdan yoritilgan. Jumladan, tergovchining ehtiyot chorasini to'g'ri qo'llashi bo'yicha atroflicha tahlil qilinib, ilmiy-nazariy xulosalari berilgan.

**Kalit so'zlar:** tergovchi, dastlabki tergov organlari, ehtiyot chorasi,

**Kirish**

Dastlabki tergov jinoyat protsessual qonunchiligi bo'yicha prokuratura, ichki ishlar organi, davlat xavfsizlik xizmati tergov hodimlari tomonidan olib boradi. Demak, jinoyatlar JPK ning 345-moddasida belgilangan tergovga tegishlilik bo'yicha ehtiyot chorasi ham ushbu organlar tergovchilari tomonidan jinoyatning ahamiyatlilik darajasiga qarab qo'llanadi. Ehtiyot chorasining to'g'ri, qonuniy qo'llanilishi tuman prokurori yoki yuqori turuvchi prokuror tomonidan qo'llaniladi.

<sup>1</sup>Ehtiyot choralarini qo'llashdan maqsad ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlashining oldini olish; uning bundan buyonggi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik; hukmning ijro etilishini ta'minlashdir.

Ehtiyot choralariga quyidagilar kiradi:munosib xulqatvorda bo'lish to'g'risida tilixat;shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi; garov; uy qamog'

<sup>1</sup> Jinoyat protsessual kodeksi 236-moddasi.

i; qamoqqa olish; voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish; harbiy xizmatchining xulqatvori ustidan qo'mondonlik kuzatuvidir.

Bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o'zida ana shu choralardan faqat bittasi qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi.

Tergov organining ta'siri va quroli bo'lib turgan ehtiyot chorasi bu — qamoq. Qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qanday hollarda va kimlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin?

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodiretilib, buning uchun jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin.

Hozirgi kunda amaliyotda iqtisodiy jinoyatlarda agar shaxs jinoyatni bo'yniga olmasa, zararni undirish uchun unga nisbatan qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llaniladi. O'zi iqtisodiy jinoyatlarga nisbatan qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash qanchalik to'g'ri?

Masalan, Rossiya davlatida iqtisodiy jinoyatlarda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilmaydi. Faqatgina istisno tariqasida qo'llaniladi va bu ham juda kamdan kam uchraydi.

Misol uchun bir tadbirkor 10 nafar odamni ish bilan ta'minlab o'tiribdi. Unga nisbatan soliqdan qarzdorligi borligini vaj qilib, aytaylik, 100 million zarar hisoblab berishdi. Tadbirkor bu zararni to'lamasa, uning boradigan manzili aniq, ya'ni to'lama qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llaniladi.

Bu o'zi qanday bo'lishi kerak?

Agar tergov organi haqiqatan ham tadbirkorni aybi bor deb hisoblasa, ishni sudga chiqarsin va sudda uning aybi isbotlansagina ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lsin. Iqtisodiy jinoyatlarda chet el amaliyotidan kelib chiqib garov yoki uy qamog'idan foydalanish kerak. Garchi qonunda uy qamog'i bilan qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi tenglashtirilgan bo'lsada, bularning o'rtasida ancha katta farq bor.

Biz tadbirkorlarga o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun imkoniyatlar yaratib berishimiz kerak. Qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilsa, tadbirkorning o'zini himoya qilish imkoniyatlari deyarli qolmaydi.

### XULOSA

Yuqoridagi fikrlarga qarab yakuniy xulosa beradigan bo'lsak, hozirgi kunda tadbirkorning davlat iqtisodiyoti uchun hissasi muhim bo'lgan vaziyatda, biz tergovchi sifatida og'ir sanksiyani qo'llamasdan, faoliyatini to'xtatib qo'ymasligi uchun imkoniyat ham berishimiz kerak. Bazi tadbirkorlik subyektlari, soliqdagi muammolar sababli, o'z faoliyatini to'xtatmoqda. Ushbu vaziyatlarni tushungan holatda, tadbirkorlik

subyektlariga ehtiyot chorasini qo'llashda ham imkoniyatlar berishni nazarda tutish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar, iqtibos, rehferences.**

O'zbekiston Jinoyat protsessual kodeksi

Adliya vazirligining LEX.UZ sayti.

Rossiya federatsiyasining Jinoyat protsessual kodeksi.